

Qurbonova L.A.
falsafa fanlari doktori, kafedra mudiri
Andijon davlat univer sited

Usmonova.Sh
assistent o 'qituvchi
Andijon davlat univer sited

Abdullayev.E
assistent o 'qituvchi
Andijon davlat univer sited

INSON KAPITALINING KO'RINISHLARI VA ULARNING FALSAFIY-METODOLOGIK XUSUSIYATLARI

Inson kapitali - ishlab chiqarishni, texnologiyani, ilmiy tadqiqotlarni, xizmat ko'rsatishni va boshqa har qanday ijtimoiy faoliyat turini eng yangi bilimlar, eng yangi usullar va yo'l-yo'riqlar bilan olib boruvchi hamda o'z mehnat faoliyatining tamaliga innovatsiyani qo'ygan mehnatkashlar armiyasidir.

Inson kapitali yaratish uchun har bir bolani eng kichik yoshdan boshlab bilim olishga yo'naltirish, ilmga havas, mehnatga muhabbat uyg'otish, ularga ta'lim berayotgan o'quv muassalarini esa eng yangi ta'lim texnologiyalari, dunyo standartlari darajasidagi darslik va qo'llanmalari bilan ta'minlash lozim.

"Inson kapitali nazariyasi" asoschilaridan biri bo'lgan G.Bekkerning fikricha - bu har bir mehnatga qodir bo'lgan insondagi mavjud bilimlar, ko'nikmalar va motivatsiyalar zahirasidir. Unga investitsiyalar, ta'lim, kasbiy tajribani to'plash, sog'liqni saqlash, jo'g'rofiy safarbarlik, informatsiyalarni izlashni kiritish mumkin.

Aksariyat iqtisodchilarning fikriga ko'ra, inson kapitali olingan bilim, ko'nikma, motivatsiyalar hamda insonlarga xos bo'lgan g'ayratdan iborat bo'lib, ulardan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish maqsadida ma'lum vaqt davomida foydalanish mumkin. Uning shakllantirilishi, jismoniy yoki moliyaviy kapitalni jamg'arilishi kabi, kelgusida qo'shimcha daromadlar olish maqsadida joriy iste'moldan mablag'larni jalb qilishni talab etadi. "Inson kapitali" deganda, undan maqsadga muvofiq foydalanganda, yangi qiymatlarni va daromadlar oqimini yaratadigan investitsiyalarni va shaxs tomonidan to'plangan bilimlar, malakalar va boshqa sifatlarni tushunish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda bizning fikrimizcha, inson kapitali - bu insonning bilim, ko'nikma, qobiliyatlari va motivatsiyalari zaxirasidan iborat bo'lib, uning ishlab chiqaruvchi kuchini o'sishiga yordam beradi.

Umuman olganda, inson kapitalining asosiy fondlari (aktivlari) o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Intellektual (o'z navbatida ta'lim, bilim, ilmiy va innovatsion komponentlardan tarkib topuvchi) kapital; ishlab chiqarishda tayyorlash kapitali (malaka, ishlab chiqarish ko'nikmalari va tajribasini birlashtiruvchi kompetentlik);

salomatlik kapitali;

safarbarlik kapitali (migratsiya);

tadbirkorlik faoliyati (raqobatbardoshlik) kapitali;

boshqa turlari (kengaytirilgan nuqtai nazarlarda, ya'ni "ijtimoiy kapital", "ijodiy kapital", "madaniy kapital" va boshqalar sifatida).

Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi - bu avvalo, inson salohiyatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi bilan bog'liq. Bu o'z navbatida jamiyatning doimiy ravishda rivojlanishini ta'minlovchi, ya'ni birinchi navbatda ta'lim va fan sohasidagi mehnatning nufuzini oshirishni talab etadi.

Innovatsion salohiyat milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini aniqlovchi strategik resurs hisoblanadi. Aksariyat mamlakatlarda innovatsion salohiyat iqtisodiy o'sishning asosiy manbai va milliy boylikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Innovatsion salohiyatni shakllantirish, rivojlantirish va undan samarali foydalanish masalalari bugungi kunda O'zbekiston uchun har qachongidan ham dolzarbdir.

Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi

rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat ko'plab mahsulotlarni ishlab chiqarish va bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'ymoqda. Ya'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlarni yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.

Inson kapitali faqat intellektual qatlam va intellegensiyadan iborat emas. Bu tushuncha odamlarning turish-turmushi, salomatligi, kayfiyati, orzu-intilishlari, bir-biriga bo'lgan munosabatini ham o'z ichiga oladi. Hozirda inson kapitali tushunchasi har qachongidan ham muhimroq ahamiyat kasb etib bormoqda. Ta'kidlash joizki, mazkur falsafiy tushunchaning jamiyat tomonidan qabul qilinishi, yoxud jamiyat a'zolarining bu kategoriya joylashuvi turlichadir. Inson kapitalining ko'rinishlarini O'zbekiston misolida ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Mamlakatimizda inson kapitalining quyidagi ko'rinishlarini yoxud turlarini bir biridan ajratish mumkin:

1. Faol inson kapitali;
2. Nofaol inson kapitali;
3. Manfiy inson kapitali.

1. *Faol inson kapitali* - deganda insonning o'zi uchun sarflangan sarmoyalarni to'la o'zlashtirgan va uni o'zining, yaqinlarining manfaatlariga xizmat qildirish orqali jamiyat rivojiga hissa qo'shishga qodir ijodiy va innovatsion kapital tushuniladi.

Bu asosan aholi salomatligining yaxshilanishi, aholining turmush darajasining oshishi, innovatsion salohiyatning ortishi, ta'lim tizimi va bevosita ilm-fanning taraqqiyoti, axborot almashinuvi va ta'minoti erkinligi, kabilarda namoyon bo'ladi. Chunki, inson kapitalining o'lchamlari va sifati aholining mentaliteti, ta'lim darajasi, hayotiy tasavvurlari va sog'liqni saqlash sohasidagi ahvol kabilar bilan o'lchanadi. Aytish lozimki, ilm-fan, ta'lim va sog'liqni saqlash kabilarga yo'naltiriladigan sarmoyalar tarixan qisqa muddat ichida samara berishi mumkin, lekin asrlar davomida shakllangan mentalitetni qisqa vaqtda o'zgartirish qiyin. Shu bois ham dunyodagi ilg'or tajriba va bilimlarni milliy shaxs mentalitetining ijobiy xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yurtimiz rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tajribasi o'zlashtirilgan ekan, ayni shu nuqtalarga jiddiy e'tibor qaratilayotgani diqqatga sazovordir. Muhtasar aytadigan bo'lsak, ilg'or xorijiy tajribaning xalqimiz milliy mentalitetiga va ko'p asrlik an'analarga mos keladigan shakllari olinmoqda hamda ular mahalliy shart-sharoitlarga moslashtirilmoqda. Shuningdek, milliy madaniyatimiz, an'analimiz va yoshlarimizni chet ellardagi ba'zi oqim va harakatlarning zararli ta'siridan saqlash uchun olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar va ko'plab profilaktik tadbirlar ham aynan shu maqsadni ko'zlagandir. Inson kapitali ham ayni konkret shaxs kabi ma'lum bir sivilizatsiya, mentalitet va an'analarning mahsuli hisoblanadi.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish joizki, mamlakatimizda nafaqat yosh avlodning bilim olishi, kasb-hunar o'rganib malaka orttirish, jahon taraqqiyoti bilan hamqadam bo'la olishi barobarida inson kapitalini rivojlantirish uchun keng imkoniyat va shart-sharoit yaratilgan. Xususan, "inson kapitali"ni ta'minlash uchun Muhtaram Yurtboshimiz boshchiligida hukumatimiz tomonidan yurtimizdako'pgina ishlarni amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar Strategiyasida ham inson kapitalini rivojlantirish jarayonida muhim hujjat bo'lib xizmat qilayotir. Besh yillikka mo'ljallangan ushbu dastur natijasi o'laroq ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat, ilm-fan va boshqa sohalarda insonning bilim olishi, tajriba orttirishi, asosiy munosib hayot kechirishi borasida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda.

2. *Nofaol inson kapitali*. Inson kapitalining bu ko'rinishi yurt taraqqiyotiga va aytarliq hissa qo'shmaydi, uning butun mohiyati moddiy imkoniyatlarning iste'molchisi bo'lish hisoblanadi. Nofaol inson kapitalini asosan, maktabda yaxshi ta'lim olmagan, qo'l mehnatiga asoslangan sanoatda, mahsulot ayirboshlashga asoslangan tijoratda yoki texnikalashmagan qishloq xo'jaligida band kishilar tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda, malaka talab qilmaydigan ishlarda ishlaydigan kishilar, ya'ni «qora mehnat» qiluvchilar nofaol inson kapitalini tashkil etadilar.

3. Inson kapitalining eng tahlil va bahs talab uchunchi turi *manfiy inson kapitali*dir. Manfiy inson kapitali deganda, nomidan ma'lum bo'lganidek, o'ziga sarflangan investitsiyalardan jamiyat uchun hech qanday foyda keltirmagan, o'zi yashaydigan jamiyat iqtisodiyotining rivojiga, na turmush darajasining

yuksalishiga, na shaxs sifatida o'zining rivojlanishiga hissa qo'shishga yaramagan toifa tushuniladi. O'zbekcha ifoda bilan aytganda, «na o'ziga, na boshqaga foydasi tegmaydigan» toifa manfiy inson kapitalini tashkil etadi. Ashaddiy jinoyatchilar, giyohvandlar, korrupsionerlar, ishyoqmaslar, ichkilikbozlar, tekinox'rlilik bilan kun kechiruvchilar - bir so'z bilan aytganda, jamiyat va oilasining sarflangan moddiy investitsiyasi, bergan ta'lim-tarbiyasining samarasini yo'qqa chiqargan kishilar manfiy inson kapitali sifatida namoyon bo'ladilar. Ana shu toifadagi inson kapitali misolida ba'zi toifadagi kishilar uchun sarflangan investitsiyalar hamisha ham o'zining ijobiy samarasini beravermasligi ko'rinadi. Manfiy inson kapitali ko'pincha xalqning mentalitetidagi etishmovchiliklar, aholi madaniyat saviyasining pastligi, jamiyatdagi sotsial muammolar, shuningdek, kishilarning tabiiy haqqi boflgan hurriyat va erkinliklarning cheklanishi kabi sabablar natijasida vujudga kelishi mumkin.

Ma'naviyati rivojlangan, insonparvarlik ko'rinishlari yuksak va demokratiya taraqqiy etgan jamiyatlarda manfiy inson kapitali toifasidagilarga o'zlarining umidsiz hollaridan chiqish uchun so'nggi imkoniyatlar beriladi. Ularning ijobiy tomonga o'zgarishga bofigan harakatlari jamiyat va davlat tomonidan qoqilab-quvvatlanadi. Bu jarayon O'zbekistonda o'ziga xos ko'rinishga ega. Jumladan, Respublikamizdagi Amnitsiya yoki Avfni olaylik. Ma'lumki, yurtimizning mustaqillik bayramida, Konstitutsiya qabul qilingan kunda o'z yofilaridan adashgan, xato yofilarga kirgan kishilarga avf (amnitsiya) e'lon qilinishi mamlakatimizda yaxshi an'anaga aylangan. Bu sobiq mahbuslarning hayot yofilarini izga solishi, jamiyatda o'z o'rnini topishlari uchun berilayotgan katta bir yordam deyish mumkin.

Bunday ijtimoiy g'amxo'rlilik natijasida manfiy inson kapitaliga aylanishga ulgurgan insonlar jazoni o'tash muassasalaridan muddatidan oldin ozodlikka chiqariladi, so'ngra ularga mahalla va ichki ishlar organlari ish topish va turar joy bilan ta'minlashda yordam beradilar, yangi kasb yoki hunar sohibi bofiishiga ko'maklashadilar. Mamlakatimizda ushbu insonparvarlik jarayoni ana manfiy inson kapitali ko'rinishiga kelib qolgan odamlarni shu tarzda to'g'ri yo'lga tushib olishlariga ko'maklashib, musbat inson kapitali toifasiga qaytishiga xizmat qiyayotir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, inson kapitalining ko'rinishlari (turlari) o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Va yana aytilish mumkinki, ularning har biri jamiyat taraqqiyoti uchun o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Ularning qay bir shaklini oshirish esa nafaqat mamlakat hukumati, balki, keng jamoatchilik, qolaversa har bir oilaning bu masalani qay darajada tushunishi, anglashiga bogfiiq.

ADABIYOTLAR:

1. Usmonov B.SH., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta'lim va ilm-fanning roli. Ilmiy-ommabop risola. - T.: 2015.
2. Inson taraqqiyoti. Darslik. /I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. - T.: Iqtisodiyot, 2013.
3. Журавлёва Г.П. Капитал: сущность и формы. Кругооборот и оборот капитала // Экономика: Учебник. — М.: Юристь, 2001.
4. Добрынин А.И. Человеческий капитал в транзитивной экономике: формирование, оценка, эффективность использования // А.И. Добрынин, С.А. Дятлов, Е.Д. Цыренова. СПб.: Наука, 1999.
5. Tulenovfo.J. Jamiyat falsafasi. - T, 2001 yil.
6. Falsafa. O'quv qo'llanma - T., «Sharq», 1999 yil.
7. Abdullayev. E.B.Inson kapitali va uning falsafiy-metodologik jihatlari. magistrlik dissertatsiyasi. Andijon - 2020.
8. Shermukhamedova, N. A. "Philosophy." Tashkent: Noshir (2012).
9. Namozova, Yulduz. "СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ ГЕНЕЗИС ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ФИЛОСОФИИ, СФОРМУЛИРОВАННОЙ В ТУРКЕСТАНЕ." Theoretical & Applied Science 10 (2019): 370-374.
10. Абдуллаева, Н. (2023). Эффективные методы организации научной деятельности студентов. in Library, 22(2), 113-125. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/21747>
11. Zikirova, N., et al. "Interactive Strategies and Methods of Education." *International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN* (2019): 2277-3878.